O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....	733
Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	737
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	



TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	742
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoiria Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарида Хуразовна	
XORIJIY MOLIYAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNI	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	



SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xattabov Murodulla Batirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.

E-mail: leon.eshliy5999390m@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini oshirishga qaratilgan ichki boshqaruv instrumentlari tahlili keltirilgan. Shu bilan bir qatorda sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini oshirishga qaratilgan ichki boshqaruv instrumentlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, sug'urta tashkilotlari, sug'urta to'lovi, sug'urta mukofoti, sug'urta puli, sug'urta javobgarligi.

Abstract. Bu masalada sug'urta tashkilotlarida to'g'ridan-to'g'ri qarorga kiritilgan ichki boshqaruv asboblari tahlili maqola. Shu bilan bir qatorda sug'urta tashkilotlarida to'lovni ko'rib chiqish uchun ichki boshqaruv asboblari ta'minlashga taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqarish.

Key words: sug'urta bozori, sug'urta kompaniyasi, sug'urta to'lovi, sug'urta mukofoti, sug'urta puli, sug'urta javobgarligi.

Аннотация. В данной статье представлен анализ инструментов внутреннего управления, направленных на повышение платежеспособности страховых организаций. Одновременно разработаны предложения и практические рекомендации по совершенствованию инструментов внутреннего управления, направленных на повышение платежеспособности страховых организаций.

Ключевые слова: страховой рынок, страховые организации, страховые платежи, страховые премии, страховые деньги, страховая ответственность.

KIRISH

O'zbekistonda sug'urta bozori jadal rivojlanib borayotgan milliy iqtisodiyotning muhim institutsional bo'g'inlaridan biri sifatida shakllanib, sug'urta tashkilotlari ushbu tizimning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi asosiy moliyaviy institutlar hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiya bosqichiga o'tishi sharoitida sug'urta bozori oldiga qo'yilayotgan vazifalar tubdan o'zgarib, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi va ayniqsa to'lov qobiliyatini ta'minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy islohotlarning chuqurlashuvi, innovatsion muhitning kengayishi, moliyaviy texnologiyalarning joriy etilishi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni oshiribgina qolmay, balki sug'urta tashkilotlari zimmasiga yuklanayotgan majburiyatlar hajmi va tavakkalchilik darajasini ham keskin oshirmoqda. «O'zbekiston – 2030»¹ strategiyasida belgilangan inson manfaatlariga yo'naltirilgan rivojlanish modeli, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, raqamli iqtisodiyot va "yashil" transformatsiya jarayonlari sug'urta tizimidan yuqori darajadagi kapital yetariligi, likvidlik va risklarni qoplash imkoniyatini talab etadi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar, kiberxavflar va makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini mustahkamlash nafaqat sug'urta bozorining barqaror ishlashi, balki aholi farovonligini himoya qilish, investitsion muhitni qo'llab-quvvatlash va milliy moliya tizimining ishonchligini ta'minlashning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug'urta bozorining rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashning asosi uning hozirgi holatining tahlili va unga to'g'ri baho beishdan iborat, sug'urta bozorini maksimal aniq tahlil qilishni esa tizimli tahlil yondashuvlari asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Sug'urta bozorini tizimli tahlil qilish uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari prognozini maksimal aniq qilish imkonini beradi. Sug'urta bozori ijtimoiy-iqtisodiy tizimning muhim elementini o'zida aks ettiradi, shuning uchun unga tizimli yondashuvni to'liq asosli ravishda qo'llash mumkin. Sug'urta bozorida har qanday sharoitni tizimli yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilish katta evristik imkoniyatlarga ega.

Shuningdek S.Scawthom² qayd qilishicha, sug'urta sohasining rivojlanishini tadqiq qilish jarayonida tizimli yondashuv aksariyat hollarda qo'llanilgan. Shunga qaramay, sug'urta bozori infratuzilmasini o'rganishda cheklangan resurslardan foydalaniladi, vaholanki, sug'urta bozorini ham mego, mezo va mikrodarajada tahlil qilish taqozo etiladi.

Amerikalik olim Benjamin Friedman risk turlari bo'yicha aktivlarni diversifikatsiya qilish, yuzaga keladigan risklarni sug'urtalash va sug'urtalovchilar o'rtasida taqsimlash, ya'ni qayta sug'urtalash muammolarini ko'rib chiqqan. Benjamin Friedman uni milliy iqtisodiyotdagi munosabatlar dinamikasi va uning infratuzilmasining turli ixtisoslashuvlaridan olinadigan foyda nuqtai nazaridan baholaydi³. Milliy iqtisodiyot sub'ektlarining bir-biri bilan bog'liqligini ta'minlash maqsadida sug'urta tashkilotlari, banklar va nobank institutlari moliyaviy vositachi sifatida xizmat qiladi. Sug'urta tizimi, moliya bozori haqidagi institutsional nazariya, jamg'armalarni sanoat sektoridagi muqobil foydalanuvchilar o'rtasida resurslarni taqsimlovchi investitsiyalarga aylantirishni ta'minlaydigan shartli institutsional kelishuvlar sifatida tizimlash nuqtai nazaridan ajratib ko'rsatish kerak deb ta'kidlab o'tgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini oshirishga qaratilgan ichki boshqaruv instrumentlarini takomillashtirishda analiz, sintez, tanlama kuzatuv, qiyoslash, statistik tahlil, induksiya, deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash masalasi moliyaviy barqarorlikni baholashning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amalda qo'llanilayotgan ko'plab tahlil usullarida to'lov qobiliyati aktivlar va majburiyatlarning umumiy hajmi, likvidlik koeffitsientlari hamda kapital yetariligi kabi statik ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Biroq sug'urta faoliyatining iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, to'lov majburiyatlari doimiy va bir xil vaqt oralig'ida emas, balki tasodifiylik, mavsumiylik va portfel tarkibiga bog'liq holda vaqt bo'yicha noteng shakllanadi. Shu sababli, faqat umumiy hajmlarga asoslangan baholash sug'urta tashkilotining real to'lov qobiliyatini to'liq aks ettira olmaydi.

Nazariy jihatdan sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyati faqat "qancha majburiyat bor" degan savolga emas, balki "ushbu majburiyatlar qachon va qaysi davrda to'lanadi" degan savolga ham javob berishni talab qiladi. To'lov majburiyatlarining muayyan qisqa vaqt oralig'ida yuqori darajada jamlanib qolishi, hatto yetarli aktivlar mavjud bo'lgan sharoitda ham likvidlik bosimini kuchaytirishi mumkin. Bu holat sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini vaqt omilini hisobga olgan holda baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, sug'urta tashkilotlarida majburiyatlarning vaqt bo'yicha taqsimlanish xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, to'lov piklarining davriyligini aniqlash va likvid aktivlar bilan vaqt kesimidagi muvofiqlikni baholash ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Mazkur yondashuv aktiv va majburiyatlarni muvofiqlashtirish (ALM) nazariyasi, likvidlik risklarini boshqarish konsepsiyasi hamda riskka asoslangan to'lov qobiliyati modellari bilan uzviy bog'liq bo'lib, sug'urta tashkilotining joriy va kelgusidagi to'lov qobiliyatini kompleks baholash imkonini beradi.

Shu sababli, sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini oshirish masalasini hal etishda majburiyatlarning oylik to'planish darajasi, to'lov piklarining vaqt bo'yicha joylashuvi, to'lov talablarining siljishi va likvid aktivlar bilan qoplanish darajasini hisobga oluvchi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish nazariy jihatdan asosli hisoblanadi. Bunday yondashuv to'lov qobiliyatini statik holat sifatida emas, balki vaqt omili bilan bog'liq dinamik iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib chiqish imkonini yaratadi.

Aynan shu ilmiy yondashuv sug'urta tashkilotlarida likvidlikni faqat joriy holatda emas, balki ehtimoliy xavfli davrlar kesimida baholash, to'lov yuklamalari keskin oshishi mumkin bo'lgan bosqichlarni oldindan aniqlash va to'lov qobiliyatini strategik boshqarish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Nazariy jihatdan sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyati aktivlar hajmi yoki kapital yetariligi bilan cheklanib qolmay, balki

2 Scawthom C. Asian Catastrophe Insurance. / C.Scawthom, K.Kobayashi. 2008. April. – 165 p.

3 Benjamin Friedman. The Moral Consequences of Economic Growth, 2005.



ushbu resurslarning majburiyatlarni qoplash vaqti va shakliga mos kelishi bilan belgilanadi. Klassik moliyaviy nazariyada to'lov qobiliyati aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblik sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy riskka asoslangan yondashuvlarda ushbu mutanosiblik vaqt omili bilan birgalikda baholanishi lozimligi ta'kidlanadi.

Sug'urta tashkilotlari nazariyasida to'lov qobiliyatining buzilishi ko'p hollarda aktivlar yetishmasligi natijasida emas, balki majburiyatlarning ma'lum vaqt oralig'ida yuqori darajada jamlanib qolishi natijasida yuzaga keladi. Bu holat likvidlik risklari nazariyasida "vaqt bo'yicha konsentratsiya effekti" sifatida izohlanadi. Agar sug'urta tashkilotining majburiyatlari oylar yoki qisqa davrlar kesimida noteng taqsimlangan bo'lsa, hatto yuqori likvid aktivlar mavjud bo'lgan sharoitda ham to'lov piklari davrida likvidlik bosimi kuchayishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, majburiyatlarning vaqt bo'yicha zichligi tushunchasi to'lov qobiliyatini baholashning nazariy jihatdan muhim elementi hisoblanadi. Majburiyatlarning vaqt bo'yicha zichligi sug'urta talablari qaysi davrda, qay darajada jamlanishini, to'lov yuklamasining qay vaqtda maksimallashtirishini va ushbu yuklamani likvid aktivlar qay darajada qoplay olishini aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv to'lov qobiliyatini statik balans ko'rsatkichlari orqali emas, balki dinamik oqimlar asosida baholashga qaratilgan.

Nazariy jihatdan ushbu ko'rsatkich aktiv va majburiyatlarni muvofiqlashtirish (Asset-Liability Management) konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq. ALM nazariyasiga ko'ra, moliyaviy barqarorlik aktivlar va majburiyatlar hajmining tengligi bilan emas, balki ularning muddatlari, likvidlik darajasi va vaqt kesimidagi muvofiqligi bilan ta'minlanadi. Sug'urta tashkilotlarida ushbu muvofiqlikni ta'minlash, ayniqsa, qisqa muddatli to'lov piklari mavjud bo'lgan sharoitda, to'lov qobiliyatini saqlab qolishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Majburiyatlarning oylik to'planish darajasi va to'lov piklarining davriyligini nazariy jihatdan tahlil qilish risklarni prognoz qilish imkonini kengaytiradi. Chunki sug'urta to'lovlari ko'p hollarda mavsumiy omillar, tabiiy ofatlar, iqtisodiy sikllar yoki muayyan sug'urta turlarining xususiyatlari bilan bog'liq holda jamlanadi. Agar ushbu jamlanish oldindan aniqlanmasa, sug'urta tashkiloti likvid aktivlarini noto'g'ri taqsimlashi va to'lov qobiliyatida vaqtinchalik uzilishlarga duch kelishi mumkin.

Shuningdek, to'lov talablarining vaqt bo'yicha siljishi nazariyasi sug'urta faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Amalda sug'urta hodisasi sodir bo'lgan vaqt bilan to'lov amalga oshirilgan vaqt o'rtasida muayyan lag mavjud bo'ladi. Ushbu lagning o'zgarishi to'lov yuklamasining real vaqtda qay darajada shakllanishini belgilaydi. Agar mazkur siljish hisobga olinmasa, to'lov qobiliyatining haqiqiy holati noto'g'ri baholanishi mumkin.

Nazariy jihatdan likvid aktivlar bilan majburiyatlarning vaqt bo'yicha muvofiqligini baholash to'lov qobiliyatini ta'minlashning eng muhim mexanizmi hisoblanadi. Likvid aktivlar umumiy hajm jihatdan yetarli bo'lishi mumkin, ammo ularning naqdlashtirish imkoniyati va vaqt kesimidagi mavjudligi majburiyatlarni qoplash talablariga mos kelmasa, to'lov qobiliyati xavf ostida qoladi. Shu sababli, to'lov qobiliyatini baholashda likvid aktivlarning faqat miqdori emas, balki ularning vaqt bo'yicha foydalanish imkoniyatlari ham nazariy jihatdan hisobga olinishi lozim.

Shu tariqa, majburiyatlarning vaqt bo'yicha zichligi koeffitsiyentini joriy etish g'oyasi sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini baholashda vaqt omilini markaziy kategoriya sifatida qarashga asoslanadi. Ushbu nazariy yondashuv to'lov qobiliyatini bir martalik moliyaviy holat emas, balki vaqt bo'yicha shakllanuvchi dinamik iqtisodiy jarayon sifatida talqin qilishga xizmat qiladi va sug'urta tashkilotlarida likvidlik risklarini oldindan aniqlash uchun metodologik asos yaratadi.



1-rasm. Majburiyatlarning vaqt bo'yicha zichligi koeffitsientiamalga oshirish mexanizmi⁴

4 Muallif tomonidan ishlab chiqildi.



Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash amaliyotida asosiy muammolardan biri majburiyatlarning vaqt bo'yicha noteng taqsimlanishi va to'lov piklarining muayyan davrlarda jamlanib qolishidir. Amalda to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari, asosan, zaxiralar yetarliligi va kapital hajmiga bog'lab baholanadi, biroq majburiyatlarning vaqt kesimidagi jamlanish xususiyati yetarlicha hisobga olinmaydi. Natijada sug'urta tashkiloti umumiy moliyaviy resurslarga ega bo'lgan holda ham ayrim oylarda likvidlik tanqisligiga duch kelishi mumkin.

Nazariy jihatdan sug'urta majburiyatlari ehtimoliy va vaqt bo'yicha tarqoq xarakterga ega bo'lib, ularning konsentratsiya darajasi to'lov qobiliyatining dinamik holatini belgilaydi. Shu sababli to'lov qobiliyatini faqat balans holatida emas, balki vaqt omilini hisobga olgan holda baholash zarurati yuzaga keladi. Mazkur yondashuv riskka asoslangan boshqaruv konsepsiyasiga to'liq mos kelib, to'lov qobiliyatini statik emas, balki jarayon sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu dissertatsiya doirasida sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini oshirish maqsadida majburiyatlarning vaqt bo'yicha zichligi koeffitsientini joriy etish taklif etildi. Ushbu koeffitsiyent sug'urta tashkilotining oylar kesimida shakllanadigan to'lov majburiyatlari, to'lov piklarining davriyligi, to'lov talablarining vaqt bo'yicha siljishi hamda likvid aktivlar bilan moslik darajasini kompleks baholashga xizmat qiladi.

Mexanizmning ilmiy ahamiyati shundaki, u sug'urta tashkilotida majburiyatlar taqsimotini aniq monitoring qilish, to'lovlar keskin jamlanib qoladigan xavfli davrlarni oldindan aniqlash va likvid aktivlarni maqsadli rejalashtirish imkonini beradi. Bu esa to'lov qobiliyatini ta'minlashda reaktiv emas, balki proaktiv boshqaruv modelini shakllantiradi.

Majburiyatlarning vaqt bo'yicha zichligi koeffitsiyenti formulasi:

Taklif etilayotgan koeffitsiyent quyidagicha ifodalanadi:

$$K_{vz} = \sum_{i=1}^n \left(\frac{M_i}{\sum M} \times \frac{1}{L_i} \right)$$

bu yerda:

M_i — i-oyda kutilgan sug'urta to'lov majburiyatlari hajmi;

$\sum M$ — tahlil qilinayotgan davrdagi jami sug'urta majburiyatlari;

L_i — i-oyda mavjud likvid aktivlar koeffitsienti;

n — tahlil qilinayotgan oylar soni.

Koeffitsiyentning yuqori qiymati majburiyatlarning muayyan vaqtda yuqori zichlikda jamlanganini va to'lov qobiliyatiga likvidlik bosimi ortib borayotganini anglatadi. Hisoblash algoritmi:

Sug'urta tashkilotining to'lov majburiyatlari oylar kesimida shakllantiriladi.

Har bir oy uchun to'lov piklari va ularning davriyligi aniqlanadi.

To'lov talablarining kechikishi yoki oldinga surilishi hisobga olinadi.

Har bir oydagi likvid aktivlar hajmi baholanadi.

Majburiyatlarning vaqt bo'yicha zichligi koeffitsiyenti hisoblanadi.

Natijalar asosida likvidlikni boshqarish va aktivlarni qayta joylashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi.

1-jadval. Sug'urta majburiyatlarining vaqt bo'yicha zichligi koeffitsientini hisoblash ko'rsatkichlari⁵

Oylar	To'lov majburiyatlari (M_i)	Likvid aktivlar (L_i)	Ulush ($M_i / \sum M$)	Zichlik komponenti
Yanvar	120 mlrd so'm	1,4	0,18	0,13
Fevral	90 mlrd so'm	1,6	0,14	0,09
Mart	160 mlrd so'm	1,1	0,24	0,22
...	...	...	...	...
Jami	$\sum M$	—	1,00	K_{vz}

Taklif etilgan majburiyatlarning vaqt bo'yicha zichligi koeffitsiyenti sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini baholashni yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. U to'lov qobiliyatini faqat zaxira va kapital yetarliligi bilan emas, balki majburiyatlarning vaqtda jamlanish xususiyati orqali ham baholash imkonini yaratadi. Bu esa sug'urta tashkilotlarida likvidlik risklarini kamaytirish, to'lov piklarini yumshatish va umumiy moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini oshirish jarayonida mavjud muammolardan biri sug'urta portfelining ichki tuzilmasi yetarli darajada chuqur tahlil qilinmasdan, umumlashtirilgan moliyaviy ko'rsatkichlar

5 Muallif tomonidan ishlab chiqildi



asosida boshqaruv qarorlarining qabul qilinishidir. Amaliyotda ko'pincha kompaniyaning umumiy foydasi, jami mukofotlar yoki agregat rentabellik darajasi asosida baho beriladi. Bunday yondashuv sug'urta turlari va servis yo'nalishlari kesimida shakllanayotgan zarar, xarajat va risklar o'rtasidagi tafovutlarni yashirib, to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ichki nomutanosibliklarning o'z vaqtida aniqlanmasligiga olib keladi.

Sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyati bevosita sug'urta portfelining sifati bilan bog'liq bo'lib, ushbu sifat har bir sug'urta turi bo'yicha zararlanish darajasi, operatsion xarajatlar ulushi, risk intensivligi va qayta sug'urtalash orqali qoplanganlik darajasi bilan belgilanadi. Alohida sug'urta yo'nalishlari yuqori mukofot hajmiga ega bo'lishiga qaramasdan, yuqori zararlanish yoki ortiqcha xarajatlar sababli umumiy moliyaviy natijaga salbiy hissa qo'shishi mumkin. Shu sababli, sug'urta portfelini yagona tizim sifatida emas, balki iqtisodiy samaradorligi va risk darajasi bo'yicha farqlanuvchi servis yo'nalishlari majmui sifatida baholash zarurati yuzaga keladi.

Mazkur vazifani hal etish maqsadida sug'urta turlari bo'yicha zararlanish koeffitsienti, operatsion xarajatlar darajasi, risk profili va qayta sug'urtalash imkoniyatlari asosida servis yo'nalishlarining iqtisodiy natijalarini vizual aks ettiruvchi rentabellik xaritasini joriy etish taklif etiladi. Ushbu xarita sug'urta portfelining ichki tuzilmasini ko'p omilli tahlil qilishga imkon berib, har bir sug'urta yo'nalishining to'lov qobiliyatiga qo'shayotgan ijobiy yoki salbiy hissasini aniq ko'rsatib beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

To'lov xavfi intensivligini avtomatik baholashga asoslangan dinamik segmentatsiya tizimini joriy etish sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini ta'minlashning zamonaviy va ilmiy asoslangan mexanizmi hisoblanadi. Mazkur tizim elektron ma'lumotlar bazasi, analitik hisoblash va avtomatik monitoring modullari orqali sug'urta to'lovlari bilan bog'liq xavflarni oldindan aniqlash va segmentlash imkonini beradi. Natijada boshqaruv qarorlari reaktiv emas, balki preventiv tarzda qabul qilinib, to'lov zaxiralari, qayta sug'urtalash va tarif siyosati xavf darajasiga mos ravishda shakllantiriladi. Bu esa sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, likvidlik bosimlarini kamaytirish va to'lov qobiliyatini uzoq muddatli ta'minlashga xizmat qiladi.

1. Sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini baholashni faqat statik balans ko'rsatkichlari bilan cheklash real risklarni to'liq ochib bermaydi. Majburiyatlarning vaqt bo'yicha noteng taqsimlanishi va to'lov piklari likvidlik bosimini kuchaytiradi.

2. To'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi asosiy ichki omillar sifatida majburiyatlarning oylik to'planish darajasi, to'lov piklarining davriyligi va to'lov talablarining vaqt bo'yicha siljishini ochib beradi.

3. Majburiyatlarning vaqt bo'yicha zichligi koeffitsiyentini joriy etish taklifi sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini baholashni yangi sifat bosqichiga olib chiqishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Scawthom C. Asian Catastrophe Insurance. / C. Scawthom, K. Kobayashi. 2008. April. – 165 p.
2. Benjamin Friedman. The Moral Consequences of Economic Growth, 2005.
3. Шахов В.В. Страхование: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ, 2001. – 311 б.
4. Шихов А.К. Страхование: Учеб. пособие для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ, 2000. – 431 с.
5. Юлдашев Р.Т. Очерки теории страхования. Ретроспективный анализ развития. / Р.Т. Юлдашев. – М.: Анкил, 2009. – 248 с.
6. Thoyts R. Insurance theory and practice / R. Thoyts. – 2010. – 340 p.; Cecchini P. The Incomplete European Market for Financial Services (ZEW Economics Studies 19.) / P. Cecchini, Jopp F. Heinemann. 2003. – 187 p.
7. Бизнес: Оксфордский толковый словарь : Oxford University Press. Прогресс-академия, 1995. Университет штата Индиана, 2010
8. Зубец А. "Маркетинговые исследования страхового рынка". М.: Центр экономики и маркетинга, 2002. 224 с.
9. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: ЭКСМО. 2007. 960 с.
10. Хилл Томас Инглиш, Современные теории познания, Перевод с английского; Общая редакция и предисловие проф. Б.Э. Быховского, М.: Прогресс, 1965. – 533 с.
11. Q.Qo'ldoshev. O'zbekiston milliy sug'urta bozorida o'zaro sug'urta xizmatlarini rivojlantirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsiyon texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №2, mart-aprel, 2019-yil.
12. I.G'. Kenjayev, «Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari» Iqtisodiyot fanlari bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: TMI, 2019. 26 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
